

“O‘zbektelekom” Aksiyadorlik Kompaniyasiga 2024-yil 1-chorak
(1-yanvar-1-aprel holatiga) jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan kelib tushgan
murojaatlar to‘g‘risida

MA’LUMOTNOMA

“O‘zbektelekom” AKga joriy yilning 1 choragi davomida jami 1 725 ta jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari kelib tushgan bo‘lib, 2023-yilning mos davrida (2 257 ta)ni tashkil etgan, ya’ni 24 % ga kamaygan.

Shulardan, simli internet tarmog‘iga ulanish bo‘yicha 635 ta, simli internet sifati bo‘yicha 458 ta, xodimlarning xatti-harakati 108 ta, murojaatni tugatish, ko‘rmasdan qoldirish yoki nazoratdan olish so‘rovlari 55 ta, mobil aloqa tayanch (baza) stansiyalarini o‘rnatish yoki olib tashlash 51 ta, mobil aloqa xizmatlari narxlari va tariflari 45 ta, mobil aloqa va mobil internet sifati 41 ta, tabriklar, minnatdorlik va tashakkurnomalar 39 ta va turli masalalar bo‘yicha 293 ta murojaat kelib tushgan bo‘lib, barcha murojaatlarga o‘rnatilgan tartibda hamda belgilangan muddatlarda javob berilgan.

Murojaatlarni ko‘rib chiqishda o‘tgan yilning 1-choragi davomida kelib tushgan barcha murojaatlarning qanoatlantirish darajasi 91 % tashkil etgan bo‘lib, joriy yilning mos davrida 97 % (+6 %)ni tashkil etmoqda.

Shuningdek, Kompaniya rahbariyati tomonidan joylarda jismoniy va yuridik shaxs vakillari uchun sayyor qabullar tashkil etish bo‘yicha Kompaniyaning tegishli farmoyishi bilan tasdiqlangan sayyor qabullar jadvaliga asosan, joriy yil yanvar-mart oylarida Qashqadaryo viloyatining Chiroqchi tumani, Samarqand viloyatining Payariq tumani hamda Toshkent viloyati Bo‘stonliq tumanlarida sayyor qabullar tashkil etilgan.

Takroriy kelib tushgan murojaatlar o‘tgan yilning mos davrida (166 ta)ni tashkil etgan bo‘lib, joriy yilda ushbu ko‘rsatkich 100 ta (66 taga), ya’ni 40 % ga kamaygan.

Joriy yilning 1-aprel holatiga Kompaniya tomonidan 147 ta murojaat ko‘rib chiqish jarayonida bo‘lib 13 tasi boshqaruv apparati tomonidan, 129 tasi quyi tashkilotlar tomonidan ko‘rib chiqilmoqda.